ISSN 2181-3187

“SUV” VA “OLTIN” KOLORONIMLI FRAZEOLOGIZMLARNING QIYOSLANAYOTGAN TILLARDA IFODALANISHI

Yulduz Sharipova *- UrDU magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada tabiat tushunchalari bilan bog‘liq frazemalar tahlili muhim natijalar bera olishi sabablari, suv, havo, osmon, olov, yer kabi tushunchalar insoniyat uchun umumiy bo‘lishiga qaramay, ularga nisbatan qarashlar turli ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va boshqa omillar bois asrlar davomida muayyan o‘zgarishlarga uchragani tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Frazema, frazeologik birliklar, qarindosh tillar, bir komponentli frazemalar, semantik taraqqiyot, paremalar.

Inson va tabiat munosabatlari aksi sifatida yuzaga kelgan frazelogik birliklar ayrim tillar misolida qiyosiy o‘rganilgan ishlar miqdori ham bir talay. O.S.Krasilnikova va I.M.Podgayskayalar qarindosh bo‘lmagan tillarda “suv” tarkibli frazemalar semantikasi[1], D.D.Xayrullina rus, ingliz va tatar tillaridagi “suv” tarkibli frazemalar[2], Shahnoz Hamid Muhammadzoda rus tilidagi “suv” tarkibli iboralar hamda ularni fors tiliga tarjimasi masalalari[3] haqida maqolalar e’lon qilganlar. Ijtimoiy-siyosiy, jug‘rofiy, aqidaviy, maishiy-madaniy jihatdan bir-biridan farqlanuvchi xalqlar tillaridagi iboralarni solishtirishda, xususan, tabiat tushunchalari bilan bog‘liq frazemalar tahlili muhim natijalar bera oladi. Sababi suv, havo, osmon, olov, yer kabi tushunchalar insoniyat uchun umumiy bo‘lishiga qaramay, ularga nisbatan qarashlar turli ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va boshqa omillar bois asrlar davomida muayyan o‘zgarishlarga uchragan.

Tadqiqotlar dunyo tillarida “suv” tarkibli iboralar miqdori va salmog‘i katta ekanini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida ham “suv” tarkibli iboralar miqdori ancha katta, qo‘llanish doirasi bir qadar keng. O‘zbek iboralarida suv konsepti ma’nolari kengroq ekanligini ko‘rish mumkin.

Suvning tabiiy xossasi nutqai nazaridan kelib chiqqan iboralar ham bor. Masalan, “unutmoq” ma’nosidagi *suvga yozmoq* iborasi ingliz tilida *write in water* iborasi bilan ifodalangan bo‘lsa, nemis tilida ham ayni shu ma’noni beruvchi *ins Wasser schreiben*

[1]Красильникова О. С. Подгайская И. М Семантика фразеологических единиц с компонентом «вода» в разноструктурных языках // Материалы Международной научной конференции студентов и молодых ученых (Донецк, 17-20 октября 2017 г.). – Том 4: Филологические науки. Ч. 1: Иностранная филология. – Донецк: Изд-во ДонНУ, 2017. – С.44 – 47.

[2] Хайруллина Д. Д. Фразеологические единицы с компонентом «вода» в английском, русском и татарском языках // Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2011. – № 1. – С. 171 – 174.

[3] Мохаммад-заде Ш.Г. Фразеологические единицы с компонентом «вода» в русском языке и способы их перевода на персидский язык Филологические науки в России и за рубежом: материалы II междунар. науч. конф. (г. Санкт-Петербург, ноябрь 2013 г.). – Санкт-Петербург: Реноме, 2013. – С. 97 –99.

ISSN 2181-3187

iborasi bilan ifodalanadi. Bu ibora tarixan “muvaqqat”, “o‘tkinchi” ma’nosini anglatadi va bu ma’nosi bilan *toshga o‘yilgan* iborasi bilan zidlanadi. Fors tilida esa xuddi shu ma’no *naqsh bar ob* – “suvdagi naqsh” iborasi lug‘aviy birlikka aylangan[4]. Tojik tilidagi *naqshi bar ob* iborasi ham “o‘tkinchi”, “muvaqqat” ma’nosida ishlatiladi. Bu ibora *naqshi dar ob* shaklida Mahmudxo‘ja Behbudiy asarlari tilida uchraydi: “Faqat banim talabim *naqshi dar ob* o‘lan Buxoro hukumatidan, u eshitmasa, Buxoroning bugungi tanparvar ulamosidan, u eshitmasa, shariat ila omil har kim vor esa, ondin rijo edaramki,..”[5] Bunda *naqsh* so‘zining *tole, baxt, taqdir* ma’nolarini kasb etganini ham e’tiborga olish kerak.

Shuningdek, o‘zbek tilida “ishonchsiz narsaga ishonmoq”, “behuda umid qilmoq” ma’nosidagi *suvga suyanmoq* iborasi ham suvning tabiiy hosssasi e’tibori bilan yuzaga kelgan iboralardan sanaladi.

“Suv”ning o‘zbek frazemalari tarkibidagi eng faol ma’nolaridan biri “qadrli, e’zozli narsa”dir. Bu ma’no *suvday serob, suvday aziz* kabi iboralarda yaqqol ko‘rinadi.

Suvning hayotbaxshlik xususiyati tiriklik suvi, obi hayot birikmalarida, ruschadagi *jivaya voda*, ingliz tilidagi *water of life*, nemis tilida *das Lebenswasser*, forschada *obi hayot, obi zindagoniy* birikmalarida o‘z aksini topgan. Suvning hayotbaxshlik ma’nosiga asoslangan iboralardan biri “kuchini olmoq”, “ayovsiz ishlatmoq”, “borini tortib olmoq” kabi ma’nolarga ega *suvini chiqarmoq* frazemasidir.

Shuningdek, qarindosh tillar o‘rtasida ma’lum bir komponentli frazemalarni solishtirish, ularning semantik taraqqiyotiga oid muhim xulosalar uchun asos bo‘lishi “suv” tarkibli paremalar misolida ham ko‘ramiz. Masalan, bugunga kelib o‘zbek tilida *eshagi suvdan//loydan o‘tguncha* iborasining asl ma’nosi unutilgan. Aslida bu ibora “juda uzoq”, “ancha vaqt” ma’nosini bildirib, turk tilidagi *Eşek sudan gelinceye kadar dövmek*[6] “eshak suvdan o‘tkuncha tepmoq” iborasida mavjud.

Nemis va o‘zbek tillaridagi ayrim iboralar tahlili, ularning tarqalish areali ijtimoiy-tarixiy muhit iboralar shakllanishida muhim omil ekanligini dalillaydi. Jumladan, *oltin/golden / zolotoy* koloronimli paremiologik va frazeologik birliklar turli tuzilishga ega bo‘lgan uch til materiallari asosida qiyosiy jihatdan oz bo‘lsa-da o‘rganilgan bo‘lib, uni anglash turli xalqlarning o‘zaro munosabatlarida madaniy daltonizmning oldini olishga yordam beradi.

Oltin/ golden / zolotoy / altın rang komponentli frazeologik va paremiologik birliklar qiyosiy tahlili natijasida oltin rang koloronimi nemis, rus va tatar tillarida mutlaq ijobiy baholovchi ma’noga ega ekanligi tasdiqlandi. Nemis, rus va tatar tillarida “chiroyli, go‘zal” ma’nolarini, shuningdek, nemis va rus tillarida “boy” ma’nolarini

[4] Персидско-русский словарь. – Том 2. – М.: Русский язык, 1985. – С. 657.
[5] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Амир Дониёлнинг қабрдан ёзмиш хати // Шўро, 1912. – №23. – Б. 715.
[6] Мусап А. Репрезентация концепта вода во фразеологической картине мира (на материале русского, турецкого и английского языков): Автореф… дисс…канд… филол…наук. – Уфа, 2012.

ISSN 2181-3187

anglatishda boshqa birliklarga nisbatan yuqori chastotaga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu koloronimning o‘zbek tilida boshqa tillarda kam ommalashgan ma’nolari “mohir”, “baxtli zamon, gullagan kun” kabi leksik-semantik variantlari ham bor.

Fikrlarimizni muayyan ranglar misolida olib ko‘rsak. V.Pfayferning “Nemis tili etimologik lug‘ati”ga ko‘ra, *Gold* (oltin) koloronimi *golden* (oltin), shuningdek, *gelb* (sariq) hind-evropa tillaridagi **ĝhel(ə) – glänzen,schimmern* (“porlash, chaqnash”) so‘zlariga taqaladi. M.Fasmer lug‘atida *zoloto* koloronimining kelib chiqishi sharqiy lit tili materiallari bilan bog‘liq talqin qilinadi: *želť* – “oltin”, “sariq oltin”, latishcha. *zèlts* “oltin”, qadimgi hind tilida *hiraṇyam* “oltin”, avestoviy *zaranua* – “oltin”, shuningdek, *hári* – sariq, oltin, yashil rang; avestoviyda *zairi* – “sariq”, “oltin”, shuningdek, yashil, kulrang ma’nolarini anglatadi.

Oltin koloronimi nemis tili frazeologik birliklarida, maqollarida keng tarqalgan. Ularda oltin boylik va baxt timsoli sifatida aks etadi. Masalan, *mit einem goldenen (silbernen) Löffel im Mund geboren sein – badavlat oilada tug‘ilmoq*[7]. *Der Tanz ums goldene Kalb* (aynan: “oltin buzoq atrofida o‘yin tushish”) iborasi “Injil” hikoyalariga borib taqaladi. Bu qissalarning ayrimlari “Qur’on”da ham zikr etilgan. Bu haqda tafsirlarda atroflicha ma’lumotlar berilgan[8]. O‘zbek tilida *boylikka sig‘inish, boylikka uchmoq* iboralari mazmunan mazkur frazemaga muqobil sanaladi. Tatar tilida esa *altынga tabынu* (“oltinga sig‘inish”) frazeologizmi mavjud. Xuddi shuningdek, *das Goldene Vlies – oltin jun* iborasi Yason boshchiligida yo‘lga chiqqan argonavtlar, ya’ni Kolxida qiroli xazinasi haqidagi yunon afsonasidan olingan. Ayrim maqollarda pora berish orqali ta’sirga, muvaffaqiyatga erishish mumkinligi aytiladi: *Seine Zunge ist an ein golden Seil gelegt*. Haqiqatan, bu mazmundagi maqollar o‘zbek xalqida ham bor. Masalan, “Ber porani, o‘ldir fuqaroni”, “Aqlsiz boraveradi, aqlli pora beradi” kabi. Shu o‘rinda turli ijtimoiy muhit, har tomonlama bir qadar farqlanuvchi sharoitlarda ikki xalq ijodida bu kabi ruhan yaqinlik yaqqol ko‘zga tashlanuvchi, buning ustiga xalqlarimizning hayotiy aqidalari (prinsiplari)ga zid maqollarning paydo bo‘lishiga sabab nima? Bunda ham inson tabiatining o‘ziga xos jihati va uning tilda o‘z aksini topishiga e’tibor qaratish kerak.

Bayon qilingan materiallar tahlili natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, har ikkala tilda ham rang nomlari tarkibli iboralarning semantik strukturasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq ma’no munosabatida bo‘lgan haqiqiy va majoziy ma’nolardan iboratdir. Aksar hollarda majoziy ma’no haqiqiy (nominativ) ma’noga ishora qiladi va unda rang obrazi his qilinadi. Shuningdek, majoziy ma’nolar haqiqiy ma’noning izchil taraqqiyotining natijasi bo‘la oladi.

[7] Röhrich L Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten [Lexicon of Proverbial Sayings]. – Freiburg. – P. 566.
[8] Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Тафсири ҳилол. 1-6-жузлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти, 2008.

ISSN 2181-3187

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Э.Бегматов. Мустақиллик даври атамалари. 2002. Тошкент.
2. О.Жуманиезов. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. Т.1987.
3. Э.Бегматов. Ўзбек тили тарихий лексикологияси. Т. Фан.1981.
4. Röhrich L Lexikon der sprichwörtlichen Redensarten [Lexicon of Proverbial Sayings]. – Freiburg.
5. Персидско-русский словарь. – Том 2. – М.: Русский язык, 1985.
6. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Амир Дониёлнинг қабрдан ёзмиш хати // Шўро, 1912. – №23.